

О‘ЗBEKISTONDA TEXNOPARKLARNING RIVOJLANISHIDA VENCHUR KAPITALINING O‘RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Dilshod Xidirov Nurjamol o‘g‘li

¹TDIU, 2 kurs magistranti

Annotasiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston texnoparklaridagi asosiy muammolar: import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ahamiyat berilib, eksportbop tovarlar kam ishlab chiqarilayotganligi; texnopark faoliyatining ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati bilan chambarchas bog‘lanmaganligi; texnopark faoliyatida vechur fondlari ishtirokining mavjud emasligi o‘rganilgan hamda respublikada vechur fondlarini tashkil etish orqali ushbu muammolarni yechish bo‘yicha takliflar berilgan.

Tayanch tushunchalar: texnopark, erkin iqtisodiy hudud, innovasiya, «Yashnobod» texnoparki, vechur va investision fondlar.

Аннотация. В данной статье рассмотрены основные проблемы технопарков Узбекистана, которые состоят в том, что в технопарках нашей страны больше производится импортозамещающая продукция; отсутствие связи деятельности технопарка с деятельностью научно-исследовательских учреждений; отсутствие участия венчурных фондов в деятельности технопарка и были сделаны предложения по решению этих проблем путем создания венчурных фондов в республике

Ключевые слова: технопарк, свободная экономическая зона, инновации, технопарк «Яшнобод», венчурные и инвестиционные фонды.

Annotation. This article discusses the main problems in the technopark of Uzbekistan: the techno park of our country produces more import-substituting products; lack of connection between the activities of the technology park and the activities of research institutions; lack of participation of venture funds in the activities of the technology park and proposals were made to solve these problems by creating venture funds in the country.

Key words: technopark, free economic zone, innovations, technopark «Yashnobod», venture and investment funds.

Kirish

XXI asrning ikkinchi yigirma yilligi mamlakatimiz iqtisodiyotining turli sohalarida islohotlar davri bo‘ldi, desak adashmaymiz. Jumladan, mamlakatimiz erkin iqtisodiy hududlari (EIH) ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarning jahon standartlari-ga javob beradigan

yangi shakllari yaratildi. Xuddi shunday EИHlarning innovasion turlaridan biri texnoparklardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent shahridagi Yashnobod tumanida innovasion texnoparkni tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, «Yashnobod» texnoparki tashkil etildi.

«Yashnobod» innovasion texnoparki tijorat va notijorat tashkilotlari o‘rtasida biznes, investisiya va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida hamkorlik qilish hududi hisoblanadi.

Texnologik parkning asosiy faoliyati:

- innovasion loyihalarni amalga oshirishda tadqiqot va rivojlantirish, shuningdek, tadbirkorlik sub’yektlarini tijoratlashtirish uchun kichik innovasion korxonalarini yaratish va rivojlantirishga ko‘maklashish;

- innovasiyalarni boshqarish va marketing sohasida tadbirkorlar va mutaxassislar uchun ta’limni tashkil etish;

- yuqori texnologiyalar va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga qaratilgan ilmiy- texnik loyiha hamda dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ko‘maklashish;

- qonunlarga muvofiq xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish;

- xorijiy va mahalliy moliya institutlari, innovasion loyihalarni moliyalashtirish yoki tijoratlashtirishda yordam beruvchi tashkilotlar va yirik kompaniyalarni jalb qilish [6].

Ammo, biz o‘ylaganimizdek, mamlakatimiz texnoparklarining jahon standartlari va xorijiy mamlakatlar texnoparklari faoliyatiga muvofiq bo‘lmagan jihatlari ham mavjud:

- mamlakatimiz texnoparklari ko‘proq import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga e’tibor qaratib, innovasion eksportga yo‘naltirilmagan (aksariyat mahsulotlarning ichki bozor talabini qondirishga yo‘naltirilganligi va raqobatbardoshligining pastligi);

- texnopark faoliyatining ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati bilan chambarchas bog‘lanmaganligi;

- O‘zbekistonda texnologik hududlarning mustaqil sub’yekt sifatida tashkil etilganligi va ularning rivojlanishiga ko‘mak beruvchi moliyaviy infratuzilmaning to‘laqonli shakllantirilmaganligi (jumladan, venchur fondlari).

Ushbu ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda texnopark faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va yuqorida keltirilgan muammolarning yechimi bo‘la oladigan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

О'rganilganlik darajasi

Texnologik EIHLar, ularning nazariy va amaliy asoslari, rivojlangan mamlakatlarda texnologik EIHLarni tashkil etish tajribasi ko'plab nazariyotchi va amaliyotchi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ammo texnoparklar, ularning nazariy va amaliy asoslarini o'rgangan olimlar sanoqli. Jumladan, Jarunee Wonglimpiyarat «The dynamic economic engine at Silicon Valley and US Government programmes in financing innovations» [2] nomli maqolasida Silikon vodiysining rivojlanishi innovatsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha davlat dasturlari va vodiy muvaffaqiyatiga yordam beruvchi o'ziga xos xususiyatlar/omillarga bog'liqligini ta'kidlagan. Innovation guruhlarini qo'llab-quvvatlash, universitet resurslaridan samarali foydalanish, qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilma, xavfni qabul qilishga tayyorgarlik madaniyati, shuningdek, venchur kapitali (VC) dasturlari salohiyati Silikon vodiysidagi iqtisodiy rivojlanish uchun katalizatorlar hisoblanishini keltirib o'tgan. Shu olim tomonidan nashr etilgan qator ilmiy ishlarda AQSH texnoparklari faoliyati, ularni rivojlantirishda moliyaviy infratuzilmaning o'rni keng va batafsil tahlil qilingan. Jarunee Wonglimpiyarat ning tadqiqotlari natijalari, jumladan, texnoparkning universitetlar hamda ilmiytadqiqot markazlari bilan aloqasini kuchaytirish orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish mumkin, degan qarashlari mamlakatimizga tatbiq qilinsa, o'z samarasini beradi.

J.A. English-Lueckning «Silicon Valley reinvents the company town» [3] nomli maqolasida AQSHning Kaliforniya shtatidagi Silikon vodiysi o'zining innovation yuqori texnologiyali korporatsiyalari bilan mashhur bo'lib, madaniy ixtirolarni tadqiq qilish uchun ideal laboratoriya ekanligi, yuqori texnologiyalar borasida amalga oshirayotgan ishlari butun dunyo miqyosida iste'dodli va madaniy jamiyatni yaratishga qaratilganligi keltirib o'tilgan.

Chen Linga va Barry Naughtonlarning «An institutionalized policy-making mechanism: China's return to techno-industrial policy» nomli maqolasida [4] 2003 yilda Xitoyda texnologiya va innovation siyosat keskin o'zgarib, «texnologik innovation siyosat»ga qaytdi va bu muayyan sanoat tarmoqlarini shakllantirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri davlat aralashuvini o'z ichiga oladi, deyilgan.

Haqiqatan ham, Xitoyning xuddi O'zbekiston singari mintaqadagi nufuzini oshirishda texnologik innovatsiyalar muhim o'rin egallaydi. Shu sababli ham, Xitoyning texnologik innovation siyosatining ayrim jihatlari mamlakatimiz innovation faoliyatida ham qo'llanilsa, natija beradi, deb o'ylaymiz hamda ilmiy tadqiqotimizning tahlil qismida ushbu yo'nalishga kengroq to'xtalamiz.

F.A. Hamidova va A.A. Yadgarovlarning «Hududlar iqtisodiyotini kompleks va mutanosib rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari» [8] nomli maqolasida hududlarni

kompleks rivojlantirishda texnoparklarning o'zni o'rganilgan hamda raqobatli ustunlikka erishish va hududlarning samaradorligini oshirish- da texnoparklar muhim ahamiyat kasb etishi tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda ilmiy abstrak- siyalash, induksiya, deduksiya singari tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Shuningdek, tadqiqotni olib borishda O'zbekiston Respublikasining erkin iqtisodiy hududlar hamda texnoparklarni tashkil etishning huquqiy asoslari va «Yashnobod» texnoparkining amaliy ma'lumotlariga tayanildi.

Tahlil va natijalar

Xorijiy mamlakatlar texnologik EIHLarning tajribasini o'rganish mamlakatimizda tashkil etilayotgan texnoparklar faoliyatini rivojlantirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shulardan biri Xitoyning texnoparklarni tashkil etish va ular orqali mamlakatda innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish tajribasidir.

«Bir mamlakat – ikki tizim» rasmiy si- yosatining yaqqol namoyon bo'lishini ta'minlaydigan Xitoy texnoparklari boshqa mamlakatlar texnologiya parklaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- odatda, sanoat zonalarini tashqarisida va yirik ilmiy hamda muhandislik markazlari atrofida joylashadi;
- parklar ular joylashgan hudud yoki shaharga yaxshi moslashgan va mahalliy ma'muriyat bilan yaqindan hamkorlik qiladi;
- Davlat qat'iy siyosiy rahbarlik va moliyaviy ko'mak beradi, shuningdek, xorijiy sarmoyadorlarni jalb etadigan parklarni boshqarish, soliq imtiyozlari va boshqa qulayliklar bilan ta'minlaydi.

Xitoy yuqori texnologiyalarga alohida qiziqish bildirayotgan va vaziyatga zudlik bilan javob beradigan mamlakatlardan biridir. Xitoy texnoparklarida elektron texnika, yangi materiallar va elektr energiya manbalari ishlab chiqarish, shuningdek, biotexnologiya, foto va elektrotexnika, atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishlari nisbatan afzalliklarga ega bo'lib, ular mamlakatda yangi va yuqori texnologiyalarni rivojlantirishda muhim markazlarga aylandi. Mahalliy mutaxassislarining fikriga ko'ra, mazkur zonalar sanoat tuzilmalarini inobatga olgan holda, XXR iqtisodiyotini yanada optimallashtirish va qayta tashkil etishda tobora faol rol o'ynaydi.

Xitoyda texnoparklar g'oyasini amaliyotga tatbiq etishning ilk namunasi 1995 yilda Shenjen shahrida yuqori texnologiyalar parkini yaratish bilan boshlandi. Shenjen

texnoparki Amerika tajriba- sidan keskin farq qilib, yangi namunadagi texnoparklar avlodini boshlab beradi. Xitoyning yetakchi oliy o'quv yurtlari (masalan, Pekin universiteti), taniqli kompaniyalar va firmalar (masalan, TCL LCD, Yepson, Thompson, Shenzhen Yuwei Information and Technology Development va boshqalar) texnoparkda o'z vakolatxonalarini ochgan, shuningdek, katta kutubxona, bank, venchur fondlari va sug'urta tashkilotlari ham faoliyat olib boradi. Umuman olganda, bu yerda 40 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, 8 mingta ish o'rinlari yaratilgan. Bundan tashqari, texnologik park Xitoy Fanlar akademiyasining il- miy-texnikaviy yordamini ham qabul qiladi.

Texnoparklarda milliy va qo'shma korxonalar uchun maxsus imtiyozlar berish sharti ularning yuqori texnologiyali korxonalar maqomini olishidir. Yuqori texnologiyali korxonalar uchun daromad solig'i stavkasi 15 foizni tashkil etadi, shu jumladan, mahsulotlarni kamida 70 foizga yetkazib beradigan korxonalar uchun 10 foizli imtiyozlar taqdim etiladi. Shuningdek, «soliq ta'tillar» ham innovasion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning muhim dastaklaridan biridir. Bunday imtiyozlar milliy korxonalar uchun bir yil, qo'shma korxonalar uchun ikki yil muddatni tashkil etadi.

Kelajakda kompaniya o'z mahsulotining 70 foizidan ko'prog'ini eksport qiladigan bo'lsa, soliq imtiyozlariga ega bo'ladi.

Yuqori imtiyozlar tizimi natijasida qisqa vaqt ichida xorijiy investisiyalar jalb etilib, texnoparkning zarur infratuzilmasi yaratildi, ilmiy-tadqiqot muassasalari va xorijiy texnik parklar bilan aloqalar tizimi tashkil etildi. Yangi materiallar va biotexnologiya sanoati uchun mintaqaviy markaz yaratildi [5].

Xitoyning «Silikon vodiysi»ga aylangan ushbu hudud bugungi kunga kelib jahon elektronika mahsulotlarining 90 foizini ishlab chiqarmoqda.

Xulosa va takliflar

Ammo mamlakatimizda texnoparklar faoliyatiga bunday ta'rif berib bo'lmaydi. Bunga asosiy sabab:

- Xitoy tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, texnoparklar yoki texnologik EIHlarda, asosan, innovasion mahsulot va xizmatlarni eksport qiluvchi kompaniyalar joylashadi, biroq bizda ushbu kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning aksariyat qismi milliy bozorda import o'rnini bosuvchi tovarlar hisoblanadi;

- texnoparkda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar xorijiy investisiyalar ishtirokidagi yoki o'z milliy mablag'i hisobidan shakllantirilgan tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi. Shu sababli innovasiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq qilinishi bir qator murakkabliklar va moliyaviy muammolarni keltirib chiqaradi;

•hududda ro'yxatdan o'tgan venchur va investision fondlarning mavjud emasligi. Bunday fondlar innovasion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning asosiy dastagi sanaladi. Afsuski, mamlakatimizda 9 ta investision fond mavjud bo'lib, ularning faoliyati ham qoniqarli emas. Mamlakatimizda venchur fondlarining huquqiy asoslari yaratilmaganligi sababli bunday fondlar faoliyati hali yo'lga qo'yilmagan. Nazariy asoslardan bizga ma'lumki, texnoparklar venchur fondlarisiz rivojlana olmaydi. Bu ikki innovasion infratuzilma parallel holda bir-birini to'ldirib, innovasion iqtisodiyotni rivojlantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, muammolarni yechishda quyidagi ko'p bosqichli dasturni taklif etamiz. Ushbu dastur PZ- 20170926480 «Erkin iqtisodiy hududlar bazasida venchur moliyalashtirish tizimining institusional mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish (xorij tajribasi asosida)» ilmiy-amaliy loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Birinchi bosqichda O'zbekiston Respublikasining «Venchur tadbirkorligi va venchur fondlarini tashkil etish to'g'risida»gi qonunini qabul qilish lozim. Unga muvofiq, quyidagilarni bandlar sifatida kiritish mumkin:

- venchur kompaniyalari venchur moliyalashtirishni amalga oshirishga yo'naltirilgan yuridik shaxslar;
- venchur kompaniyalari va fondlarining kamida 51 foizi ta'sischi yoki ta'sischilarning o'z mablag'lari hisobidan tashkil etiladi;
- venchur kompaniyalari va fondlari umumiy mablag'ining 10 foizidan oshmagan miqdorini faqatgina bir loyihaga yo'naltirishi mumkin.
- Venchur shartnomalarini moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:
 - venchur faoliyati sub'yektlari mablag'lari;
 - aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan jalb qilingan mablag'lar;
 - ushbu maqsadlar uchun tegishli byudjetlar tomonidan taqdim etiladigan respublika byudjeti yoki mahalliy byudjetlar mablag'lari;
 - davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari, venchur kapitali faoliyatiga jalb etilgan davlat tashkilotlari;
 - xorijiy investorlar;
 - xalqaro moliyaviy tashkilot va jamg'armalar;
 - jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'armalari.

Davlat ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning amal qilish muddati tugagandan so‘ng, ishlab chiqarishda ularning qo‘llanilishini hisobga olib, amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini tatbiq qilishda ustuvor moliyalashtirishni ta‘minlaydi.

Dasturlarni moliyalashtirish manfaatdor tomonlarning ishtirokida qaytariladigan asosda amalga oshiriladi.

Texnologik parklar hukumat tomonidan tashkil etilgan, axborot texnologiyalari hamda innovasion g‘oyalarni amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan yuridik shaxsdir.

Ikkinchi bosqich, O‘zbekistonda venchur fondlari hamda venchur kompaniyalarini tashkil etish lozim. Xorij tajribasida texnopolislar hamda texnoparklarning tarkibiy qismi hisoblangan ushbu faoliyat turi yuqori xavf ostida innovasion ishlanmalar hamda texnologik yangiliklar yaratilishini moliyalashtirish maqsadida ishlatiladi. Iqtisodiyot tarixida ilk venchur fondlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan jamg‘armalar sifatida tashkil etilgan. Chunki moliyalashtirilayotgan innovasiyaning ishlab chiqarish jarayonida samara berishi yoki bermasligi yuqori darajadagi xavf hisoblanadi. Innovasion ishlanma samara bermagan sharoitda venchur moliyachi foyda olmaydi, lekin aksincha bo‘lganda, katta foyda ko‘rishi mumkin va davlat ham iqtisodiyotning rivojlanishini rag‘batlantirish maqsadida (katta xavf darajasini ham bashorat qilgan holda) innovasion ishlanmalarni moliyalashtiradi. Yuqori xavf darajasi sababli venchur fondlar davlat va yirik transmilliy kompaniyalar tomonidan tashkil etiladi.

Shuningdek, ushbu bosqichda mamlakatimiz EIHlar bazasida Fanlar akademiyasi va Oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda venchur moliyalashtirish tizimini shakllantirish zarur. Unga muvofiq, davlat venchur fondi tuziladi hamda EIH qoshidagi texnoparkda Fanlar akademiyasi, Oliy ta‘lim muassasalari tomonidan yaratilgan ishlanma va g‘oyalar venchur fondi tomonidan moliyalashtiriladi.

Ushbu fondlar yaratilishi iqtisodiyotda:

- innovasion ishlanmalarning hayotiylik davrini qisqartiradi;
- mamlakatimiz singari rivojlanayotgan mamlakatlar YAIMda innovasion mahsulotlar hamda xizmatlar ulushining oshishida muhim ahamiyat kasb etadi;
- «Made in Uzbekistan» brendi ostida ishlab chiqarilgan innovasion mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshadi;
- eng muhimi, ilmiy tadqiqot-ishlab chiqarish-jamg‘armalarning (aholi va davlat jamg‘armalarining) bog‘liqlikda faoliyat olib borishini ta‘minlaydi.

Uchinchi bosqich, texnoparklarni EIHlar bazasidan chiqarish hamda imtiyozlar asosida venchur fondlarini tashkil etish. Venchur fondlarini tashkil etishda aksiyadorlik jamiyati sifatida xorijiy korxonalar hamda davlat mablag‘lari jalb qilinishi

mumkin.

Texnopark innovasion mahsulot ishlab chiqarmas va uni eksportga yo‘naltirmas ekan, uning boshqa EIHlardan hech qanday farqi qolmaydi. Kelgusida mamlakatimizning innovasion indeksdagi reytingini oshirish, YAIM tarkibida ilmiy-texnik tadqiqotlar ulushini ko‘tarish jahon standartlariga javob beradigan texnopark hamda texnoparklar faoliyatini rivojlantirishda venchur fondlari va kompaniyalari muhim ahamiyat kasb etadi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jarunee Wonglimpiyarat. The dynamic economic engine at Silicon Valley and US Government programmes in financing innovations. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0166497205001215>
2. English-Lueck J.A. Silicon Valley reinvents the company town <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0016328700000264>
3. Chen, Ling & Naughton, Barry, 2016. «An institutionalized policy-making mechanism: China’s return to techno-industrial policy» Research Policy, Elsevier, vol. 45(10), – pp. 2138-2152.
4. Mazur A.A., Stogniy V.S., Osadchaya N.V. Texnoparki Kitaya. // Nauka i innovasii. № 3. –2006. – S.127-134.
5. <https://yaran.uz/texnopark/>
6. <http://mininnovation.uz/ru/news/tehnopark-jashnabad-predstavil-11-rezidentov-v-ramkah-innoweek-2018>
7. Xamidova F.A., Yadgarov A.A. Hududlar iqtisodiyotini kompleks va mutanosib rivojlan- tirishning ustuvor yo‘nalishlari. // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. № 3.– iyun, 2017 yil.